

О‘ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISH MANBALARI

Ashurova Manzifa Xolmurod qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili leksikasining boyish usullari, ichki manbalar, boshqa tillardan so‘z olish, atamalar, olinma so‘zlar, shevaga xos so‘zlar, eskirgan so‘zlar haqida ma’lumotlar beriladi. Bugungi kundagi fan-taxnika taraqqiyotining tilga ta’siri qay darajada ekanligi, o‘zbek tilining leksik zaxirasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ichki manba, tashqi manba, neytral leksika, chegaralangan so‘zlar, nofaol so‘zlar, atamalar, shevaga xos so‘zlar, dialekt va lahjalar, eskirgan so‘zlar, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi so‘zlar va olinma so‘zlar, lug‘atlar.

Bugungi globallashuv zamonida hayotimizning barcha sohasi rivojlanish negiziga aylanib ulgurdi. Fan-texnika inqilobi tilimizga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Buning natijasida o‘zbek tili leksikasi kundan-kunga boyib bormoqda. Tilning leksik zaxirasi asosan ikki xil usul bilan boyiydi:

1. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari (ichki manba);
2. Boshqa tillardan so‘z olish (tashqi manba).

Ichki manbada tilning o‘z ichki imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. Bu ham bir necha usul orqali ifodalanadi:

- 1) so‘z yasash orqali yangi so‘z hosil qilinadi: *guldon, bodomzor, darslik, qo‘lqop, sinfdosh, bedapoya, sinfdosh, tinchliksevar, sababli, Uchtepa, ijarachi, darvozabon;*
- 2) mahalliy shevalardan so‘z olish: *aya, dugona, et, bolish.*

Tashqi manbadan olingan so‘zlar asrlar davomida sayqallanib, tilimizga singib ketgan. Madaniy aloqalar va istilolar natijasida boshqa xalqlarning tiliga oid bo‘lgan so‘zlar bizning tilimizga o‘tib qolgan. O‘zbek tilining leksik zaxirasida o‘zlashgan so‘zlarning ko‘pchiligi arab, fors-tojik, rus tillariga xosdir.

1. Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar: *maktab, muallim, muomala, abadiy, adabiyot, sanoat, doim, talaba, san‘at, madaniyat, kitob, ma‘no, harakat, oddiy, milliy, balki;*

2. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar: *korxonalar, dono, nodon, chopon, olov, chorpoya, oftob, dasta, boshpana, barg, anor, kamtar, tilla, poydevor, poyabzal, dasturxon, dastro‘mol, darhol, darvoza, xursand, farzand, go‘sht, g‘isht, sust, past;*

3. Rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar: *stol, stul, ruchka, parta, doska, shkaf, samolyot, paravoz, paraxod.*

Umumxalq tilida keng qo'llanadigan va shu tilde muloqot qiluvchilarning barchasi uchun mazmuni tushunarli bo'lgan so'zlar qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar deyiladi. Ularni **neytral leksika** deb ham atashimiz mumkin. Masalan, *bug'doy, un, non, opa, quyosh* kabi so'zlar.

Ma'lum bir guruh yoki hudud chegarasidagina qo'llanilib, umumxalq tiliga xos bo'lmagan so'zlar *chegaralangan so'zlar* deyiladi.

Kasb-hunar, ilm-fan, texnika yoki san'atga xos bo'lgan so'zlar **atamalar** deb ataladi. Ular ko'pincha bir ma'noni bildiradi. Atamalar ikki guruhga bo'linadi: 1) ilmiy atamalar ma'lum bir san'at, fan yoki texnikada qo'llaniluvchi atamalardir; 2) kasbiy atamalar – ma'lum bir kasb-hunarga oid bo'lgan atamalar.

Ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, boshqa hududda yashovchi shu til vakillari uchun xos bo'lmagan so'zlar *hududiy chegaralangan (shevaga xos) so'zlar* yoki *dialektizmlar* deyiladi. O'zbek tili shevalari qarluq, qipchoq, o'g'uz singari uchta katta guruhga bo'linadi.

Bugungi rivojlanish zamonida jamiyat to'xtovsiz taraqqiy etib, kundan-kunga yangicha kiyim-kechaklar, mehnat qurollari, maishiy texnikalar ixtiro qilinyapti. Bu esa o'z navbatida eskilarning ishlatilmay qolishiga yoki kam qo'llanilishiga olib keladi. Agar buyum eskirsa, uning nomi ham eskiradi yoki butunlay muomaladan chiqib ketadi. Kundalik hayotda ishlatilmaydigan bo'lib qolgan so'zlar **eskirgan so'zlar** deb ataladi. Eskirgan so'zlar ikki guruhga ajratiladi:

1) tarixiy so'zlar – tarixda qo'llanilib, hozirda mavjud bo'lmagan, o'zi ham mazmuni ham eskirgan so'zlar. Masalan *mingboshi, ellikboshi, dubulg'a, sovut, xalfa, omoch*.

2) arxaik so'zlar – hozirda mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalaridir; bunda so'z eskiradi, lekin tushuncha saqlanib qolib, bugungi kunda qo'llaniluvchi boshqa so'z bilan ifodalanadi: *rayon* (tuman), *oblast* (viloyat), *redaktor* (muharrir), *redaksiya* (tahririyat), *ulus* (xalq).

Fan, texnika, san'atning yuksalishi bilan tilda yangi paydo bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar yangi so'zlar deb ataladi: kompyuter, telegram, sayt, fayl, fermer, teleminora. Bunday so'zlarda yangilik bo'yog'i sezilib turadi, ya'ni ular hali butun xalqimiz tomonidan bir xilda ishlatilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Hamroyev. Ona tili. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: „IQTISOD-MOLIYA“. 2007.
2. A. Nurmonov, B. Yo'ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. „Sharq“ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T.: 2001.
3. A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2002.
4. Jamolxonov H.A Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: „Talqin“ nashriyoti. 2005.